

Otalikni FHDYO organlari hamda sud orgali belgilashning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 77-moddasiga ko'ra, ota-onalar va ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lif olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ota-onasining g'amxo'rligidan foydalanish va ota-onasi bilan birga yashash huquqiga ega. Oila mustahkam bo'lsa, jamiyat ham osoyishta bo'ladi. Oilalarda parokandalik bo'lsa, jamiyatning ham tinchi yo'qoladi va tanazzulga yuz tutadi. Baxtli oilalar tufayli baxtiyor jamiyat shakllanadi, shu davlatda yuksalish bo'ladi. Chunki o'zaro mehrli bo'lgan ota-onalarning farzandlari ham bir-biriga mehribon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligiga asosan bolaning onasi bilan nikohda bo'Imagan shaxsning otaligi o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi. Ona vafot etganda, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qaerdaligini aniqlash imkoniyati bo'Imaganda yoki u onalik huquqidan mahrum qilinganda, otalik vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan holda o'zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning arizasiga binoan belgilanadi. Bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, otalikni belgilash to'g'risidagi arizani uning nomidan vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan uning homiysi berishi mumkin. Otalikni belgilash to'g'risidagi ariza bolaning tug'ilganligini qayd etish vaqtida, shuningdek bola tug'ilganligi qayd etilgandan keyin ham berilishi mumkin. Agar otalikni belgilash to'g'risida bola tug'ilgandan so'ng er-xotin birgalikda ariza berishining imkon bo'lmay qolishi yoki mushkul bo'lishini ko'rsatuvchi asoslar mavjud bo'lsa, tug'ilajak bolaning o'zaro nikohda bo'Imagan ota-onasi shunday arizani ona homiladorlik vaqtida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga berishga haqli. Otalikni belgilash rad etilganda, o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs sud tartibida shikoyat qilishi mumkin. Otalikni sud tartibida belgilash ota-onadan birining yoki bolaning vasiysi (homiysi)ning yoxud bola kimning qaramog'ida bo'lsa, shu shaxsning arizasiga, shuningdek bola voyaga yetganidan keyin uning o'zi bergen arizaga muvofiq amalga oshiriladi. Otalikni belgilayotganda sud bolaning onasi bola tug'ilishiga qadar javobgar bilan birga yashaganligi va umumiy ro'zg'or yuritganligi yoki ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta'minlab turganliklarini yoki javobgarning otalikni tan oiganligini aniq tasdiqllovchi boshqa dalillarni e'tiborga oladi. Bolaning onasi bilan nikohda bo'Imagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkin. Otalikni belgilash to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin sud shu qaror nusxasini bola tug'ilganligi ro'yxatga olingan joydagи fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboradi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zaro nikohda bo'Imagan ota-onadan bola tug'ilganda, otalik onaning va o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxsning birgalikdagi arizasiga muvofiq (bolaning onasi vafot etgan, u sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, uning yashash joyini aniqlash imkon bo'Imagan yoki u onalik huquqidan mahrum etilgan hollarda — o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxsning arizasiga muvofiq) fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan belgilanadi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan otalikni belgilash rad etilganda, o'z otaligini tan olgan shaxs tomonidan ma'muriy sudga shikoyat berilishi mumkin. O'zaro nikohda bo'Imagan ota-onadan bola tug'ilgan taqdirda, ota-onaning birgalikdagi arizasi yoki bola otasining arizasi bo'Imasa, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 61-moddasida ko'rsatilgan hollarda otalik sud tartibida belgilanadi.

**M. Ibroximova,
Fuqarolik ishlari bo'yicha Rishton tumanlararo sudi sudyasi**

2024-10-31 14:54:04